

O'ZBEKISTON SSRDA IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA KINO VA ADABIYOT ORQALI MAFKURAVIY TARG'IBOT

Parnomov Alisher Bozorovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ikkinchi jahon urushi yillarida targ'ibot jamiyatni safarbar etish va g'alabaga ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Kinematograf orqali aholi ruhiyati ko'tarilib, front va til mehnatiga ruhlantirildi. Matbuot turli millat tillarida nashr etilib, front va tildagi qahramonliklarni keng yoritdi. Adabiyot va poeziya vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilib, xalqning ma'naviy kuchini mustahkamladi. O'zbekiston kinostudiyalari va mahalliy ijodkorlar targ'ibotda faol ishtirok etdilar. Shu tariqa, kino, matbuot va adabiyot urush yillarida ma'naviy birdamlikni ta'minlovchi samarali qurol bo'lib xizmat qildi.

Kalit so'zlar. Ikkinchi jahon urushi, targ'ibot, kino, matbuot, adabiyot, poeziya, O'zbekiston, vatanparvarlik, ma'naviy birlik, g'alaba.

Аннотация. В годы Второй мировой войны пропаганда играла важную роль в мобилизации общества и укреплении веры в победу. Через кинематограф поднимался моральный дух населения, вдохновлялись трудящиеся фронта и тыла. Печать на разных языках народов освещала подвиги фронта и тыла. Литература и поэзия пропагандировали идеи патриотизма, укрепляя духовные силы народа. Узбекские киностудии и местные деятели культуры активно участвовали в пропагандистской деятельности. Таким образом, кино, печать и литература стали эффективным оружием, обеспечивающим духовное единство в годы войны.

Ключевые слова. Вторая мировая война, пропаганда, кино, печать, литература, поэзия, Узбекистан, патриотизм, духовное единство, победа.

Abstract. During the Second World War, propaganda played a crucial role in mobilizing society and strengthening faith in victory. Through cinematography,

the morale of the population was raised, inspiring the labor efforts of both the front and the home front. The press, published in various national languages, widely covered the heroism of soldiers and workers. Literature and poetry promoted patriotic ideas, reinforcing the spiritual strength of the people. Uzbek film studios and local cultural figures actively contributed to propaganda. Thus, cinema, press, and literature became effective tools ensuring spiritual unity during the war years.

Keywords. Second World War, propaganda, cinema, press, literature, poetry, Uzbekistan, patriotism, spiritual unity, victory.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi yillari nafaqat frontdagi qahramonliklar, balki front ortidagi ma'naviy va mafkuraviy kurashlar bilan ham ahamiyatli bo'ldi. Urush sharoitida jamiyatni safarbar etish, xalqning ruhiy barqarorligini ta'minlash va g'alabaga ishonchini mustahkamlashda targ'ibotning turli yo'nalishlari muhim qurolga aylandi. Ayniqsa, kino, matbuot va adabiyot xalq ongiga ta'sir ko'rsatish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish va aholini umummilliy maqsad yo'lida birlashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etdi. Ushbu vositalar orqali do'st va dushman manzarasi yaratildi, front va tildagi mehnat safarbarligi kuchaytirildi, shuningdek, turli millat va elat vakillari orasida birdamlik g'oyasi mustahkamlandi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida kino san'ati xalq ruhiyatini ko'tarish va jamiyatni safarbar etishda muhim omilga aylandi. Urush boshlanishi bilan SSSRning yirik kinostudiyalari evakuasiya qilinib, ularning bir qismi Toshkentga joylashtirildi. Shu davrda **O'zbekiston kinematografi targ'ibotning muhim markaziga** aylandi. 1941 yilning o'zida Toshkent kinostudiyasi 43 ta kino jurnal tayyorladi. Ular orasida *"Biz g'alaba qilamiz"*, *"Front, biz sen bilan"* kabi jurnallar keng tarqatilib, front va front ortidagi aholining ma'naviy quvvatini oshirishga xizmat qildi.

O'sha yillarda qisqa metrajli **agitfilmlar** ham yaratildi. Jumladan, *"Do'stlar, frontga!"* (1941) — Vatan urushida suratga olingan ilk film hisoblanib, uning suratga olinishi 1941 yil 24 iyunda boshlangan va 14 iyulda ekranga chiqarilgan.

Shuningdek, 1943 yilda rejissyorlar Komil Yormatov va Zohid Sobitov tomonidan “*Vatan sovg‘asi*” filmi ishlangan bo‘lib, u frontdagi o‘zbek askarlariga mamlakat san’at ustalarining musiqali tuhfasini sifatida namoyish etilgan.

Keyingi yillarda **jangovor kintojtlar** (masalan, “*8-kintojta*”, “*Nafrat halqasida*”, “*Jonajon sohillar*”) hamda qisqa metrajli kino konsertlar ishlab chiqarildi. “*8-kintojta*” tarkibiga “*Belgrad tuni*” va “*Uch tankchi*” kabi novellalar kiritilgan bo‘lib, ularda fashizmga qarshi kurash mavzusi yoritildi. Bu filmlar nafaqat front chizig‘idagi askarlarning ruhiy barqarorligini ta’minladi, balki front ortidagi mehnatkashlarning ishchanlik kayfiyatini kuchaytirishda ham katta ahamiyat kasb etdi[1].

Shu bilan birga, Toshkent evakuasiya qilingan markaz sifatida SSSRda urush yillarida yaratilgan filmlarning katta qismini ishlab chiqarishda qatnashdi. Ushbu filmlar asosan ikki yo‘nalishda bo‘ldi: birinchisi — front qahramonligi va vatanparvarlik ruhini targ‘ib etuvchi asarlar; ikkinchisi — yumor va musiqiy komediyalar orqali aholi ruhiyatini yengillashtiruvchi, umid bag‘ishlovchi asarlar.

Natijada, O‘zbekistonda urush yillarida yaratilgan kinofilmlar xalq ruhiyatini ko‘tarish, front va tildagi mehnatni safarbar etish hamda jamiyatdagi birdamlik va g‘alabaga ishonchni mustahkamlashda beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Adabiyot va matbuot ham targ‘ibotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xalq ongini shakllantirish va jamiyatni g‘alaba uchun ruhlantirishda katta o‘rin tutdi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Sovet matbuoti va adabiyoti tubdan qayta tashkil etildi. Jurnal va gazetalarning soni qisqartirilib, ularning asosiy vazifasi xalqning vatanparvarlik ruhini ko‘tarish, front va orqa front mehnatkashlarining qahramonlik namunalarini targ‘ib qilishdan iborat bo‘ldi. Ayniqsa, front gazetalarini turli millat tillarida nashr etildi, armiya nashrlari esa askarlarning ruhiy tayyorgarligini mustahkamlashga qaratildi. Bu jarayonda “*Krasnaya zvezda*” gazetasida P. Pavlenko, K. Simonov, I. Erenburg, A. Surkov kabi mashhur yozuvchilar faoliyat olib bordilar[2].

1941 yil 24 iyunda tashkil etilgan **Sovinformburo** urush davrida 2300 dan ortiq axborot materiallarini tayyorlab, front va front ortidagi vaziyatni yoritib bordi. Shuningdek, dushman hududi uchun nemis tilida maxsus gazetalar va “Nemisiyada nima sodir bo‘lmoqda?”, “Sovet Rossiyasida asirlar qanday yashamoqda?” kabi varaqalar tarqatildi. Frontovoy listovkalar turli shakllarda — buyruq, murojaat, she’r, maqola, hatto asirlar nomidan yozilgan maktub ko‘rinishida chop etildi[3].

Sovet adabiyoti va poeziyasi ham kuchli targ‘ibot vositasiga aylandi. Urush yillarida A. Tolstoy, M. Sholoxov, V. Katayev, A. Tvardovskiy, K. Simonov kabi yozuvchilar va shoirlar xalq ruhiyatiga ta’sir o‘tkazdi[4]. Xususan, Simonovning “Жди меня” va “Убей его!” kabi she’rlari[5], Tvardovskiyning “Василий Тёркин” poemasi keng ommalashdi.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushi davrida kino, matbuot va adabiyot mafkuraviy targ‘ibotning eng samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida jamiyat hayotida ulkan ahamiyat kasb etdi. Kinematograf xalq ruhiyatini ko‘tarish va front ortidagi mehnatni safarbar etishda xizmat qilgan bo‘lsa, matbuot va adabiyot vatanparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib etib, xalqning g‘alabaga bo‘lgan ishonchini mustahkamladi. Shu tariqa, ma’naviy-mafkuraviy ta’sir vositalari urush yillarida sovet xalqining birdamligi va irodasini shakllantirishda, tarixiy g‘alabani ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов Р. (1970). Совет Ўзбекистони санъати улуғ Ватан уруши йилларида. –Т., 1970. 7-8-бетлар, Рахимова Г. Ўзбек санъати фронтида. // Қизил Ўзбекистон. 1942. 8 декабрь; Қори-Ниёзий Т.Н. Ўзбекистонда фан ва маданият яшнамоқда.//Қизил Ўзбекистон. 1944. 25 декабрь, Ишанходжаева
3. Репрессивная политика Советской власти и её воздействие на культурную жизнь Узбекистана (1925-1950 гг.). Автореф.дисс... докт.ист.наук. –Т.: 2012. –50 с.; Мустафаева Н. Мустамлака ва совет даври тарихшунослигида

Ўзбекистоннинг XX аср маданияти. Тарих фан.докт. ...дисс.автореф. –Т.: 2016. –85 б.

2. Жуков С. И. Фронтовая печать Отечественной Войны / С.И. Жуков. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1968. – С. 56.

3. Кондакова Н.И. Идеологическая победа над фашизмом 1941-1945 гг. / Н.И. Кондакова. - М.: Политиздат, 1982. – С. 102.

4. Кондакова Н.И. Идеологическая победа над фашизмом 1941-1945 гг. / Н.И. Кондакова. - М.: Политиздат, 1982. – С. 87.

5. Симонов К. Стихотворения и поэмы. Л., 1982. – 81 с.